

**Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA (SHARTNOMA)**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “RUBICON WIRELESS COMMUNICATION” AJ (keyingi o‘rinlarda - **“Operator”**) o‘z faoliyatini **“Perfectum”** xizmat ko‘rsatish belgisi asosida amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, Operator Nizomi va O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan berilgan 2024-yil 28-noyabrdagi 505209-sonli “Xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlarini ko‘rsatish”; 2024-yil 28-noyabrdagi 505212 - sonli “Ko‘chma radiotelefon (uyali) aloqa tarmoqlarini loyihalash va qurish, ko‘chma radiotelefon (uyali) aloqa tarmoqlaridan foydalanish va ularning xizmatlarini ko‘rsatish”; 2024-yil 28-noyabrdagi 505218 - sonli “Ma‘lumotlar uzatish tarmog‘ini loyihalashtirish, qurish, foydalanish va xizmatlarini ko‘rsatish” va 2024-yil 28-noyabrdagi 505225-sonli “Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish, mahalliy va shaharlararo telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va mahalliy va shaharlararo telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlarini ko‘rsatishi” litsenziyalari asosida telekommunikatsiya operatori hisoblanuvch ushbu bilan Ommaviy ofertani qabul qilgan foydalanuvchiga (keyingi o‘rinlarda - **“Abonent”**) telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Ommaviy ofertaning 1.5-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali taqdim etadi.

1.2. Ushbu Ommaviy oferta Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi (keyingi o‘rinlarda - **“Shartnoma”**) bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining 2026-yil 6 yanvardagi 287-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish Qoidalari (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026-yil 26 yanvardagi 3762-son bilan ro‘yxatga olingan) asosida ishlab chiqilgan.

1.3. Telekommunikatsiya xizmatlari Operator tomonidan Abonentni O‘zbekiston Respublikasi hududida VoNR, eMBB va FWA texnologiyasi bo‘yicha 5G SA standarti tarmog‘iga ulash va moddiy shaklga ega bo‘lmagan muayyan texnik operatsiyalarni bajarish orqali taqdim etiladi.

1.4. Abonentga telekommunikatsiya xizmatlari Abonent ushbu Ommaviy oferta shartlarini to‘liq (shartsiz) va so‘zsiz qabul qilgan hamda Abonent uskunasi mavjud bo‘lgan holda, shu jumladan Abonent o‘zi tanlagan Tarif rejasi va qo‘shimcha xizmatlar to‘plamiga asosan xizmatlar uchun oldindan to‘lovni amalga oshirish majburiyatini bajarganda taqdim etiladi.

1.5. Ushbu Ommaviy oferta shartlari asosida Abonentning Shartnoma tuzishga roziligi va uni qabul qilishi Abonent tomonidan ro‘yxatdan o‘tish blankasini imzolanishi va/yoki Operatorning telekommunikatsiya xizmatlari uchun to‘lovlarni ushbu Ommaviy ofertada belgilangan tartibda to‘lashi hisoblanadi. Abonent qayd etilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab Shartnoma yozma ravishda tuzilgan hisoblanadi.

1.6. Ushbu Ommaviy oferta maqsadlari uchun quyidagi asosiy atamalar va ta’riflar qo‘llaniladi:

Abonent – ushbu ommaviy oferta shartlarini qabul qilish orqali telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Operator bilan ushbu shartnomani tuzgan jismoniy shaxs.

Abonent raqami – telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi muddati davomida Operator tomonidan Abonentga ajratilgan va unga ko‘ra telekommunikatsiya tarmog‘iga ulangan Abonent uskunasi va SIM kartani/eSIM identifikatsiyalovchi individual raqam. Abonent raqami tarmoq ichidagi kod, prefiks va raqamdan iborat.

Abonent uskunasi – Abonentga Operator xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradigan va telekommunikatsiya tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni shakllantirish, o‘zgartirish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan Operator tarmog‘ida identifikatsiyadan o‘tgan texnik uskuna. Abonent uskunasi Operator xizmatlarini qabul qilish uchun Operatorning texnik talablariga va O‘zbekiston Respublikasi standartlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

Abonentlik to‘lovi – Abonentga Operator xizmatlaridan foydalanish imkoniyati evaziga Operator tariflarida belgilangan miqdorda va davriylikda Abonentning shaxsiy hisob raqamidan avtomatik ravishda oldindan to‘lov sharti asosida hisobidan chiqariladigan (echib olinadigan) to‘lov.

Aksept (qabul qilish) - Abonentning ushbu Ommaviy ofertaning 1.5-bandida bayon etilgan harakatlarni bajarish orqali ushbu Ommaviy oferta shartlari bo‘yicha Shartnoma tuzishga roziligi.

Autentifikatsiya ma‘lumotlari - Internetdagi shaxsiy kabinet/mobil ilovaga kirish va/yoki tegishli xizmatni olish uchun foydalaniladigan Abonentning noyob nomi (login) va paroli (password). Abonent o‘zining autentifikatsiya ma‘lumotlarining xavfsizligi, shuningdek ularni uchinchi shaxslarga taqdim etishning barcha oqibatlari uchun shaxsan javobgardir.

Diler (Agent) - Operator mansabdor shaxsining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat asosida ro'yxatga olish blankalari va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek, o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Operator Abonentlariga axborot-ma'lumot berish va boshqa xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Shartnoma - Abonent va Operator o'rtasida tuzilgan va ushbu Ommaviy oferta va ro'yxatdan o'tish blankidan iborat bo'lgan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi ushbu Shartnoma, u asosida zarur bo'lgan elementlardan (abonent raqami, Tarif rejas, tegishli jihoz va boshqalar), shuningdek, Abonent to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda ma'lum bir xizmat yoki bir nechta (paketli) telekommunikatsiya xizmatlari taqdim etiladi.

Tarmoqdan fodalana olish - Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarni olish uchun Operator tarmog'idan foydalanish imkoniyati.

Tarif birligi - Abonent tomonidan Operator xizmatlari uchun to'lanadigan, Operator tomonidan tanlangan narxlash (tarif) tizimiga bog'liq bo'lgan davomiy ulanish birligi.

Xizmat ko'rsatish zonasi - Operator tegishli litsenziyalar asosida xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek, ushbu xizmatlarni ko'rsatish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lgan hudud.

Kontent - SMS va ma'lumotlarni uzatish xizmatlari orqali qabul qilingan axborot yoki ko'ngilochar xarakterga ega bo'lgan matn yoki multimedia ma'lumotlari.

Shaxsiy hisob raqami - Operatorning avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimida pul ko'rinishida ifodalangan Abonentning xizmatdan foydalanish huquqlari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarini o'z ichiga olgan elektron fayl.

Operator - "RUBICON WIRELESS COMMUNICATION" AJ ("**Perfectum**") tovar belgisi/xizmat belgisi, yuridik manzili: 100060, Toshkent sh., Mirobod tumani, T. Shevchenko ko'chasi, 21, STIR: 201 501 439, bank hisobi: 2021 4000 6004 5792 7001, "O'zsoatqurilishbanki" ATB Mirzo-Ulug'bek SBU, MFO: 00440, email: info@perfectum.uz, Tel.: +998 98 305-12-19, +998 98 305-11-11).

Rasmiy WEB-sayt - www.perfectum.uz manzilida joylashgan Operatorning Internetdagi sayti.

Ma'lumotlar uzatish - ma'lumotlarni keyingi qayta ishlash uchun telekommunikatsiyalar vositalari yordamida signallar ko'rinishida bir punktdan boshqa punktga ko'chirish.

Shaxsga doir ma'lumotlar - muayyan jismoniy shaxsga - Abonentga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Shaxsiy kabinet - Operatorning rasmiy WEB-saytidagi Abonent tomonidan qabul qilingan xizmatlar hajmi va shaxsiy hisob raqamining joriy holati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, Abonentning autentifikatsiya ma'lumotlarini kiritish orqali shaxsiy kompyuter va/yoki abonent uskunasi orqali kirish imkoniyati bo'lgan elektron bo'lim.

Mobil ilova - Operatorning mobil uskunalar uchun mo'ljallangan hamda Abonentning shaxsiy kabineti va Operatorning Xizmatlaridan foydalanishini (kirishini) ta'minlashga xizmat qiladigan dasturiy ta'minoti.

Uzib qo'yish chegarasi - Operator Abonentga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini cheklash yoki ularni to'liq to'xtatib turish huquqiga ega bo'lgan Abonentning shaxsiy hisob raqamidagi (balansidagi) pul mablag'larining minimal miqdori.

Qoidalar - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026-yil 26 yanvarda 3762-son bilan ro'yxatdan o'tgan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 6-yanvardagi 287-mh-son buyrug'iga 1-ilova).

Foydalana olishni taqdim erish - Operator tomonidan Abonent foydalanishi va tarmoqqa ulanish uchun abonent raqamini taqdim etish bo'yicha operatsiyalarni bajarish.

Ommaviy oferta - Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ushbu Ommaviy oferta (Shartnoma). "Ommaviy oferta" va "Shartnoma" atamaları bir xil ma'noga ega.

Xizmat ko'rsatish punkti - abonentlar axborot-ma'lumot xizmatlarini olishlari, xizmat ko'rsatish shartnomalarini tuzishlari va boshqa turdagi xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo'lgan statsionar savdo nuqtasi yoki xizmat ko'rsatish punktidir. Operatorning xizmat ko'rsatish punktlari joylashgan joyi va ish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali taqdim etiladi.

Hisob-kitob davri - Operator xizmatlari taqdim etiladigan 30 kalendar kunga (agar Tarif rejasiga muvofiq boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) teng vaqt davri. Hisob-kitob davrining boshlanishi bu Abonentning shaxsiy hisob raqamidan pul mablag'larini hisobdan chiqarish vaqti, tugashi esa Operator xizmatlari Tarif rejasiga asosida to'xtatilgan oxirgi kun hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tish blanki - Operator tomonidan belgilangan namunadagi Abonent, Abonent raqami va Abonent tomonidan dastlab tanlab olingan Tarif rejasini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan blank va Abonentning Ommaviy ofertaning barcha shartlarini to'liq (shartsiz) va so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlovchi Abonent arizasi.

SIM-karta (Subscriber Identity Module) - ichiga olinuvchi mikrosxema o'rnatilgan identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent uskunasi identifikatsiya qilishi, mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi.

eSIM (embedded Subscriber Identity Module) - abonent uskunasi virtual identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent uskunasi identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi.

IMEI (International Mobile Equipment Identifier) - xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodi (keyingi o'rinlarda IMEI kodi) - 15 raqamdan iborat bo'lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM / UMTS / LTE / NR standartlari bo'yicha ishlovchi, mobil abonent uskunasi identifikatsiyalovchi raqam.

Operator tarmog'i - bu Abonentga telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi telekommunikatsiya vositalari majmuidir. Operator tarmog'iga quyidagilar kiradi:

- ma'lumotlar uzatish tarmog'i – ma'lumotlar uzatilishini ta'minlash maqsadida ma'lum nuqtalar o'rtasida telekommunikatsiyalarni tashkil etish uchun tuzilgan telekommunikatsiyalar uzellari va kanallarining majmui;

- Internet aloqa tarmog'i - yagona manzil va nomlar makonidan foydalaniladigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan, yagona TCR/IP protokoliga muvofiq ishlaydigan ko'plab tarmoqlardan iborat global xalqaro tarmoq.

SMS (Short Messaging Service) – qisqa matnli xabarlar xizmati.

Tariflash tizimi – xizmatlarning har xil tur va to'plamlari bo'yicha xizmatlar narxini hisoblash usuli.

Tomon / Tomonlar – Operator va/yoki Abonent, ushbu Shartnomaning bir yoki ikkala Tomoni.

Tarif rejasi – telekommunikatsiya xizmatlarining muayyan to'plamiga mos keladigan tariflar ro'yxati bo'lib, u Operator tomonidan Abonentlarga bitta yoki bir nechta telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish uchun taqdim etiladigan narxlar va texnik shartlar majmuasidir.

Qo'shimcha xizmat uchun tarif – Tarif rejasiga kiritilmagan alohida xizmat uchun Operator tomonidan belgilangan tarif. Alohida tarif har qanday Tarif rejasini tanlash bilan belgilanmaydi. Alohida tariflar qog'ozda tashuvchi tariflar yoki Operatorning rasmiy web-saytida yoki Abonent bilan tuzilgan Shartnomada yoki ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ko'rsatiladi.

Tariflar – Operator tomonidan belgilangan Tarif rejalar va qo'shimcha xizmatlar uchun belgilangan tariflari to'plami.

Tarmoqdan foydalana olishni ta'minlashning texnik imkoniyati – ajratilgan radiochastota resursini hisobga olgan holda bo'sh abonent sig'imi raqamlari va/yoki aloqa kanallarining, shu jumladan radiokanallarning mavjudligi.

Xizmat ko'rsatishning texnik imkoniyati – Abonentga tegishli telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun zarur bo'lgan Operatorning xizmat ko'rsatish zonasi (hududi)da ishlaydigan texnik va aloqa vositalarining mavjudligi.

5G SA (Standalone) – bu beshinchi avlod tarmoq arxitekturasidir, unda butun infratuzilma, jumladan, tarmoq yadrosi 5G texnologiyalari bazasi asosida qurilgan.

VoNR (Voice over New Radio) – 5G SA tarmog'i orqali ovozli ma'lumotlarni uzatish.

eMBB (Enhanced Mobile Broadband) – Internet tarmog'iga yuqori tezlikdagi mobil keng polosali ulanish.

FWA (Fixed-Wireless Access) – statsionar (fiksatsiyalangan) simsiz keng polosali Internetga ulanish texnologiyasi.

Operator xizmatlari – Abonentga tarmoqdan fodalana olishni ta'minlash uchun aloqa tarmog'ining texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ro'yxati Operator tomonidan belgilanadigan radiosignallarni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish xizmatlari, asosiy va qo'shimcha aloqa xizmatlari va boshqa xizmat/servislar.

Mobil aloqa xizmati – 5G tarmoqlarida VoNR texnologiyasi bo'yicha ovozli aloqani, eMBB texnologiyasi bo'yicha mobil ma'lumotlarni uzatishni va SMS uzatishni ta'minlaydigan kompleks xizmatdir.

Ma'lumotlarni uzatish xizmati – simsiz keng polosali ulanishdan foydalanishning innovatsion variantidir. Operatorning statsionar (fiksatsiyalangan) simsiz kirish (FWA) texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlarni uzatish xizmati faqat statsionar simsiz kirish (FWA) uchun mo'ljallangan abonent uskunalar orqali ko'rsatiladi.

Internet tarmog'idan foydalana olish xizmati – statsionar simsiz va mobil aloqadan foydalangan holda ma'lumotlarni qabul qilish va uzatish xizmati.

Frod – Operator tarafidan taqdim etiladigan aloqa xizmatlaridan o'rnatilgan tartib va taomillarni buzib, tegishli to'lovsiz, shuningdek Operator, Operator abonentlari va/yoki boshqa uchinchi shaxslarning pul mablag'ini va ma'lumotlarini o'zlashtirib olishga (foydalanishga) qaratilgan Abonentning qasddan harakati yoki harakatsizligi

2. XIZMATLAR KO'RSATISH TARTIBI

2.1. Shartnomani tuzishda Tomonlar Operator tomonidan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish va Abonent tomonidan ushbu xizmatlarni qabul qilishning texnik imkoniyatini, zarurat bo'lganda tegishli Abonent uskunasi mavjudligini birgalikda aniqlaydilar.

2.2. Operator tomonidan xizmatlar ko'rsatishning yoki Abonent tomonidan xizmatlarni qabul qilishning texnik imkoniyati mavjud bo'lmaganda, Shartnoma tuzilmaydi.

2.3. Operator xizmatlarni ko'rsatishning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Abonentga mavjud xizmatlar shu jumladan asosiy va qo'shimcha xizmatlar ro'yxatini, taqdim etadi. Abonent taklif etilgan ro'yxatdan tegishli xizmat turini tanlash huquqiga ega.

2.4. Abonent Operator bilan shartnoma tuzishning quyidagi usullaridan birini tanlashga haqli:

2.4.1. Abonentning shaxsan ishtirokida, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan holda;

2.4.2. Abonent vakilining shaxsan ishtirokida, shaxsini tasdiqlovchi hujjatni hamda tegishli tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomani taqdim etgan holda;

2.4.3. mobil ilova yoki Operatorning rasmiy saytidagi shaxsiy kabinet orqali biometrik identifikatsiyadan (Face-ID) o'tish yo'li bilan. Texnik sabablarga ko'ra biometrik identifikatsiyadan o'tishning imkoni bo'lmagan taqdirda, Abonent Operatorning xizmat ko'rsatish punktlariga murojaat qilish orqali identifikatsiyadan o'tishga haqli.

Operatorga bevosita murojaat qilinganda Abonent quyidagi shaxsga oid va boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi:

- familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), yashash joyi;

- shaxsini tasdiqlovchi hujjat rekvizitlari (seriyasi, raqami va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami — JSHSHIR);

- bog'lanish ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili — mavjud bo'lsa);

- FWA xizmatini tanlashda telekommunikatsiya xizmatlaridan taxminiy foydalanish manzili.

Elektron shaklda murojaat qilinganda ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar elektron ko'rinishda taqdim etiladi.

2.5. Ro'yxatdan o'tish blankini imzolangan yoki shaxsiy kabinet yoki mobil ilova orqali ro'yxatdan o'tgan (identifikatsiya qilingan) shuningdek Abonent tomonidan Operator/Dilerga tegishli hujjatlar taqdim etilgan paytdan e'tiboran Abonentning

shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga uning roziligi olingan hisoblanadi va Operator/Dilerga Operatorning "Abonentlarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish to'g'risida"gi Siyosati (bundan buyon matnda – "Siyosat") va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga ruxsat etiladi. Siyosatning amaldagi tahriri Operatorning rasmiy veb-saytida va mobil ilovasida ochiq kirish imkoniyati bilan joylashtiriladi. Tuzilgan shartnoma shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlashda Abonentning roziligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

2.6. Xizmatlarni ko'rsatish tanlangan Tarif rejasi va abonent raqami (agar raqam pullik bo'lsa) uchun Abonent oldindan to'lovni amalga oshirgan kundan (bir kun ichida) boshlanadi.

2.7. Agarda Abonent Ofertani qabul qilgandan keyin SMS-xabar jo'natish orqali unga bildirilgan muddatda oldindan to'lov summasini amalga oshirmasa (yoki to'liq to'lamasa), bu Abonent Shartnoma tuzishdan bosh tortganligini bildiradi. Belgilangan muddatda oldindan to'lov to'liq to'lanmagan taqdirda, qisman to'langan pul summasi Abonentga qaytariladi.

2.8. Tanlangan Operatorning xizmatlarini foydalanish uchun Abonent o'z uskunasiida tegishli texnik imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

2.8.1. Operator tarmog'i bilan texnik jihatdan mos kelishi sharti bilan Abonent mobil aloqa xizmatidan foydalanish uchun mustaqil ravishda yoki Operatoridan xarid qilgan mobil uskunasiidan foydalanishi mumkin.

2.8.2. Statsionar (fiksatsiyalangan) simsiz ulanish (FWA) orqali ma'lumotlar uzatish xizmati faqat FWA uchun mo'ljallangan Abonent uskunalarini orqali ko'rsatiladi. Operator tarmog'i bilan texnik jihatdan mos kelishi sharti bilan Abonent mustaqil ravishda yoki Operatoridan alohida tuzilgan shartnoma asosida xarid qilgan mobil uskunasiidan foydalanishi mumkin. Abonent xoxshiga ko'ra, Operator Abonent uskunasiini muayyan tarif rejasiga ulanish sharti bilan buning uchun tegishli Abonent uskunasi va amaldagi tarif rejasi mavjud bo'lishi sharti bilan, Abonentga foydalanish uchun taqdim etish huquqiga ega. Abonent uskunalarini alohida tuzilgan shartnoma asosida foydalanishga beriladi.

2.9. Abonent o'ziga qonuniy asosda tegishli bo'lgan va o'zi foydalanayotgan Abonent uskunasi sertifikatlanganligiga, Operatorning belgilangan texnik talablariga va amaldagi normativ hujjatlarga muvofiqligiga kafolat beradi. Operator, Abonent tomonidan zaruriy sertifikatlashtirishdan, tekshiruvdan o'tmagan yoki Operatorning texnik talablariga javob bermaydigan uskunadan foydalanilgan taqdirda, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, barqarorligi va mavjudligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

2.10. Abonentga taqdim etilgan Abonent uskunasiining identifikatsiyasini ta'minlovchi SIM-kartani:

- faqat Operatoridan mulk huquqi asosida sotib olingan yoki foydalanish uchun qabul qilingan, va Operator tarmog'ida (yoki ma'lumotlar bazasida) identifikatsiyadan o'tgan simsiz ulanishdan foydalana olish (FWA) uchun mo'ljallangan Abonent uskunasiiga o'rnatilishi kerak. Faqatgina ushbu Abonent uskunasi orqali Operator xizmatlarini ko'rsatish, Abonent esa ularni qabul qilishga majburdirlar. Abonentga SIM-kartani boshqa abonent uskunasiiga, shu jumladan Operator tarmog'ida identifikatsiyadan o'tgan va Operatoridan sotib olingan boshqa uskunaga mustaqil ravishda almashtirib qo'yish taqiqlanadi; - Operator tarmog'i bilan texnik jihatdan mos kelishi sharti bilan Abonentning mobil aloqa xizmatidan foydalanishga mo'ljallangan mobil uskunasiiga o'rnatilishi kerak.

2.11. Zarur hollarda, abonent raqami yoki SIM-karta almashtirish faqat Abonent yoki uning qonuniy vakilining shaxsan ishtiroki va yozma arizasi asosida amalga oshiriladi. Arizalar Operatorning xizmat ko'rsatish punktlarida qabul qilinadi.

2.12. 2.11-bandda belgilangan qoidalar, shu jumladan, FWA texnologiyasi bo'yicha xizmatlarni olishda Abonent uskunasiini almashtirishga ham tatbiq etiladi, bunda yangi Abonent uskunasi Operatorning texnik talablariga javob berishi va Abonent tomonidan Operatorning ushbu xizmatlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.

2.13. Abonent mobil aloqa Operatorining xizmatlarini eSIM'dan foydalangan holda olishga haqli. eSIM bilan bog'liq barcha operatsiyalar, shu jumladan faollashtirish, faolsizlantirish va almashtirish, Abonent yoki uning qonuniy vakili Operator/Dilerning xizmat ko'rsatish punktlariga shaxsan kelgan holda taqdim etgan yozma arizasiga binoan yoki mobil ilova (shaxsiy kabinet) orqali amalga oshiriladi.

2.14. Shartnoma tuzilgunga qadar Operator/Diler ma'lumotlarni ichki axborot ma'lumotlar bazalari bilan solishtirish orqali Abonent bilan ilgari tuzilgan va amalda bo'lgan shartnomalar mavjudligini tekshiradi.

2.15. Agar Abonentning nomiga Operator bilan ilgari tuzilgan va amalda bo'lgan shartnomalar bo'yicha besh va undan ortiq abonent raqamlari rasmiylashtirilgan bo'lsa, yangi Shartnoma tuzish faqatgina Operatorning mijozlarga xizmat ko'rsatish punktlarida amalga oshiriladi, bunda ushbu Abonentning nomiga Operator tomonidan rasmiylashtirilgan barcha abonent raqamlariga SMS-xabar orqali yangi ulanish to'g'risida bildirishnoma yuboriladi.

2.16. Abonentni identifikatsiya qilish, Operator xizmatlariga ulanish mobil ilova va shaxsiy kabinetdan foydalana olishni ta'minlash Abonentning shaxsiy autentifikatsiya ma'lumotlari yordamida amalga oshiriladi.

2.17. Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar asosiy va qo'shimcha xizmatlarga bo'linadi. Asosiy va qo'shimcha xizmatlar ro'yxati Abonentlarni belgilangan tartibda oldindan xabardor qilgan holda, shuningdek, Operatorning qo'shimcha xizmatlari Tarif rejalarini va tariflariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan holda o'zgartirilishi mumkin.

2.18. Asosiy xizmatlar Abonentga Operator xizmatlariga ulangan taqdirda, Abonent tomonidan tanlangan Tarif rejalariga muvofiq taqdim etiladi. Qo'shimcha xizmatlar asosiy xizmatlardan tashqari qo'shimcha xizmatlar uchun tanlangan tariflarga muvofiq ko'rsatiladi. Tarif rejalarining shartlari, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish tartibi va shartlari Operator tomonidan belgilanadi va Operatorning ofislari va WEB-saytida joylashtiriladi.

2.19. Xizmat(lar) Abonentning shaxsiy hisob raqamidagi balansi ijobiy bo'lgan taqdirda, Abonent tanlagan Tarif rejasi / Qo'shimcha xizmatlar uchun tariflarda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

2.20. Agar Abonentning shaxsiy hisob raqami balansi xizmatlarni olish yoki standart harakatlarni amalga oshirish uchun yetarli bo'lmasa (belgilangan uzib qo'yish chegaradan past bo'lsa), Operator Abonent o'z hisobini kerakli miqdorda to'ldirgunga qadar asosiy va qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib turadi.

2.21. Xizmatlar Operator tomonidan Abonentga kechayu kunduz, har kuni, uzluksiz taqdim etiladi va bunda profilaktika va ta'mirlash ishlari olib borilgan kunlar mustasno bo'lib, Abonent bu haqda Operator tomonidan oldindan xabardor qilinadi.

2.22. Profilaktika va ta'mirlash ishlarini olib borish, yirik avariya oqibatlarini bartaraf etish, Abonent uskunasi ishdan chiqishi xizmatlar ko'rsatishdagi uzilishlar va/yoki xizmatlar ko'rsatish shartlarining buzilishi bo'lib hisoblanmaydi.

2.23. Agar texnik imkoniyati manjud bo'lmasa, Operator Shartnoma tuzishni rad etishga haqli.

2.24. Shartnoma Tarif rejasi shartlarini, Operator xizmatlarining muayyan turini yoki bir nechta (to'plamli) telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish shartlari va xususiyatlarini, shuningdek, Operator tomonidan xizmatlar ko'rsatish shartlari va tartibini o'z ichiga oladi va ushbu Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.25. Operator xizmatlarining to'liq ro'yxati va Tarif rejalarini Operatorning Abonentlarga xizmat ko'rsatish ofislarida, Operatorning rasmiy web-saytida va/yoki Diler ofislarida joylashtiriladi (e'lon qilinadi).

2.26. Operator tomonidan FWA xizmati bo'yicha Abonentga SMS-xabarlarini yuborish Shartnoma tuzish paytida Abonent tomonidan taqdim etilgan mobil raqamiga yuboriladi. Mobil aloqa xizmati bo'yicha SMS-xabarlarini yuborish Operator tomonidan ushbu xizmat bo'yicha Operatorida yangi faollashtirilgan abonent raqamiga amalga oshiriladi.. Shu paytdan boshlab Abonentning taqdim etilgan raqamga SMS-xabarlarini olishga roziligi olingan deb hisoblanadi. Aloqa uchun mobil raqam o'zgargan taqdirda, Abonent bu haqda Operatorni oldindan xabardor qilishi shart.

2.27. Operatorning har qanday xizmatlarini faollashtirish Abonentning oldindan bildirilgan roziligi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Quyidagi hollarda Abonentning roziligi olingan deb hisoblanadi:

- mobil ilova yoki shaxsiy kabinetdagi harakatlar tasdiqlanganda;
- Ro'yxatdan o'tish blankasi imzolanganda.

3. OPERATORNING MAJBURIYAT VA HUQUQLARI

3.1. Operator majburiyatlari:

3.1.1. O'z faoliyatini ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshirish;

3.1.2. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini amaldagi standartlar, qoidalar, normalar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash;

3.1.3. Abonentga xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi, jumladan xizmatlar uchun tariflar o'zgarganligi to'g'risidagi batafsil axborotni taqdim etish;

3.1.4. Telekommunikatsiya tarmoqlaridan ruxsatsiz foydalana olish holatlariga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

3.1.5. Shartnoma shartlariga rioya qilmaslik uchun javobgar bo'lish;

3.1.6. Abonentni xizmat ko'rsatish zonasi chegaralari bilan tanishtirish va uni ushbu chegaralardagi o'zgarishlar haqida muntazam ravishda xabardor qilish.

3.1.7. Shartnoma tuzilgandan va Shartnomaga muvofiq Abonent tomonidan dastlabki to'lov amalga oshirilgandan keyin 1 (bir) ish kuni ichida Abonentga xizmatlarni ko'rsatishni boshlash;

3.1.8. Kechayu-kunduz xizmat ko'rsatish;

3.1.9. Xizmatlar ko'rsatishdagi kamchiliklarni bartaraf etish;

3.1.10. Abonentlarni tarmoqlardagi yirik avariya, ularni rekonstruksiya qilish va yakunlashning taxminiy muddatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari, o'zining rasmiy web-sayti yoki SMS- xabarlar orqali xabardor qilish;

3.1.11. Telefon orqali muloqot chog'ida Operator ishchilari tomonidan o'z lavozimi, familiyasi yoki shaxsiy (operator) raqamini ko'rsatgan holda Abonent bilan muomala qilish etikasiga rioya etilishini ta'minlash;

3.1.12. Abonent murojaat qilganda uning so'roviga binoan uning shaxsiy hisob raqami holati va qarzdorlik mavjudligi haqida xabar berish;

3.1.13. Abonentning so'rovlarini (yozma shakldagi yoki axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali) u kelib tushgan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) kun yoki materiallarni qo'shimcha o'rganish zarurati tug'ilganda bir oy ichida ko'rib chiqish;

3.1.14. Operatorning axborot xizmatiga murojaat qilishda Abonentlarning teng huquqligini ta'minlash. Operatorning ma'lumot xizmatiga qo'ng'iroq qilishda ba'zi Abonentlarga boshqa Abonentlarga nisbatan ustunlik berilishiga yo'l qo'ymaslik.

3.1.15. O'z mas'uliyati doirasiga kiruvchi telekommunikatsiya tarmog'idagi nosozliklar belgilangan muddatlarda bartaraf etish.

3.1.16. Rasmiy saytida xizmatlar turlari va standartlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi, shuningdek aholi punktlari ro'yxati ko'rsatilgan interaktiv elektron onlayn xaritani yuritish;

3.1.17. Xalqaro trafikning noqonuniy uzatilishiga va GSM, IP yoki SMS shlyuzlaridan yashirin foydalanishga qarshi, shu jumladan tarmoqqa maxsus apparat va dasturiy ta'minot o'rnatish orqali chora ko'rish;

3.1.18. O'zining telekommunikatsiya tarmoqlarida xalqaro trafikni uzatish tartib-qoidalarini buzilishining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha chora-tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirish hamda abonentlarning harakatlarini tahlil qilish yoki tegishli choralarni ko'rish orqali abonent raqamlarini faol identifikatsiya qilish tamoyillariga asoslangan vositalar va tizimlardan foydalanish.

3.1.19. Operator Abonentga quyidagi ma'lumotlarni bepul taqdim etadi:

- Abonent uskunasiidan foydalanish imkoniyati haqida;
- ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati, shuningdek ularni ko'rsatish tartibi va shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida;
- Operatorning xizmat ko'rsatish hududini o'zgarishlari to'g'risida;
- xizmatlar tariflarini o'zgartirish to'g'risida yangi tariflar kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin xabar berish;
- Operatorning xizmat ko'rsatish punktlari ish rejimidagi o'zgarishlar to'g'risida;

- Operator rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida;
- Internet-trafik va boshqa xizmatlarning tugashi haqida.

3.1.20. Tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi va resurslardan foydalanish uchun to'lovlarni hisobdan chiqarishda Abonentning shaxsiy hisobvarag'i (balansi)ni manfiy qiymatga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik.

3.1.21. Operatorning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

3.2. Operatorning huquqlari:

3.2.1. Xizmatlar, shu jumladan axborot va ma'lumot xizmatlari uchun tariflarni mustaqil ravishda belgilash.

3.2.2. Bir tomonlama amaldagi tariflarga, xizmatlar uchun haq to'lash muddati va shartlariga o'zgartirishlar kiritish va bu haqda Operatorning rasmiy WEB-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish yoki SMS - xabar yoki ommaviy axborot vositalari orqali yoki boshqa yo'l bilan o'zgarishlar kiritilishidan kamida 15 kun oldin Abonentni xabardor qilish.

3.2.3. Abonentdan mazkur Oferta/Shartnoma shartlariga rioya qilishni talab qilish.

3.2.4. Abonentdan amaldagi qonunchilik va ushbu Ofertada belgilangan tartibda telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirishni talab qilish.

3.2.5. Qonun hujjatlariga muvofiq, Abonentlar Shartnoma shartlarini buzganliklari yoki ularga ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lamaganliklari uchun ularga talabnoma yuborish.

3.2.6. Abonent tomonidan Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish.

3.2.7. Me'yoriy hujjatlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turishni nazarda tutuvchi rejalashtirilgan va rejadan tashqari texnik chora-tadbirlarni o'tkazish yoki Abonentlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tegishli sifatini ta'minlash maqsadida mavjud telekommunikatsiya tarmoqlarining ishlash salohiyati tiklash ishlarini amalga oshirish.

3.2.8. Operatorning rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish, SMS xabarlarini yuborish yoki Operator uchun maqbul bo'lgan boshqa usullar bilan Abonentni xabardor qilgan holda, bir tomonlama Ommaviy ofertani O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilish, Ommaviy oferta (shartnoma) shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

3.2.9. Abonentning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish.

3.2.10. Abonent tanlagan Tarif rejasiga va/yoki foydalaniladigan xizmatlar hajmiga qarab oldindan to'lov miqdorini o'zgartirish.

3.2.11. Ushbu Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, Abonentning tarmoqdan fodalana olishini to'xtatib turish. Qoidabuzarliklar to'liq bartaraf etilgandan va belgilangan to'lov amalga oshirilgandan so'ng Abonentga tarmoqqa takroriy kirish huquqi beriladi. Bunda Abonentga avvalgi raqamini saqlab qolish kafolatlanmaydi.

3.2.12. Agar mavjud abonent raqamlari bo'yicha to'lanmagan qarz mavjud bo'lsa, Operator Shartnoma bo'yicha qo'shimcha raqamlarni tarmoqqa ulanishni amalga oshirmaslik huquqiga ega.

3.2.13. Abonent Shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda, Abonentning abonent raqamini tarmoqdan uzish, cheklash yoki to'xtatib turish, unga xizmat ko'rsatishni to'xtatish va Shartnomani qo'shimcha ogohlantirishsiz bekor qilish, shu jumladan:

- Abonentning shaxsiy hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmagan hollarda;
- agar Abonent tanlagan xizmatlar tarifiga muvofiq Operator tomonidan belgilangan muddatdan ortiq davr mobaynida pullik tadbirlarni (abonent uskunasi yoki tizimi orqali Abonentning shaxsiy hisob raqamidan mablag'larni yechib olishga olib keladigan Abonentning har qanday harakati) amalga oshirmasa;
- ketma-ket 365 kalendar kun davomida Abonentga Operator xizmatlaridan foydalanish huquqini beruvchi tranzaksiyalar amalga oshirilmaganda;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

3.2.14. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni (qayta ishlashni) quyidagi hollarda uchinchi shaxsga topshirishga haqli:

- subyektning yozma shakldagi, shu jumladan elektron hujjat tarzidagi roziligi mavjud bo'lgan taqdirda;
- agar qaror mulkdor va subyekt o'rtasidagi shartnomani ijro etish yoki ilgari tuzilgan shartnoma shartlarini bajarish uchun qabul qilinayotgan bo'lsa;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda.

3.2.15. Operator SIM-karta, eSIM va MSISDN dan foydalanilishini nazorat qilish. FWA xizmatlari uchun nazorat Abonent uskunasi ham tatbiq etiladi. Operator faollashtirilgan SIM-kartadan ro'yxatdan o'tish blankasida ko'rsatilmagan boshqa uskunada qayta foydalanish holatlarini nazorat qiladi,

3.2.16. Operator O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4. ABONENTNING MAJBURIYATLARI VA HUQUQLARI

4.1. Abonentning huquqlari:

4.1.1. Shartnoma tuzishdan oldin quyidagi turdagi ma'lumotlarni olish:

- ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha xizmatlar ro'yxati;
- ko'rsatiladigan xizmatlarning narxi va tariflari;
- xizmatlarni tashkil etish usullari va Abonentning telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanish imkoniyati;
- ulanish va texnik xizmat ko'rsatish tartibi;
- xizmatlar ko'rsatish qoidalari;
- kafolatlangan xizmat va sifat darajasini olish, Operator serveridagi abonent ma'lumotlarini himoya qilishning kafolatlangan darajasi olish.

4.1.2. Shartnomada belgilangan tartib va shartlarda o'z Abonent uskunasi tarmoqqa ulash;

- 4.1.3. Operatoridan Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilishini talab qilish;
- 4.1.4. Operatorning axborot-ma'lumot xizmati xizmatlaridan foydalanish.
- 4.1.5. Shoshilinch operativ xizmatlariga qo'ng'iroq qilishda, shuningdek Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Operator xizmatlaridan bepul foydalanish.
- 4.1.6. Shartnomada ko'zda tutilmagan va Abonent tomonidan so'ralmagan, shuningdek, uning rozilgisiz unga ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lashdan bosh tortish.
- 4.1.7. Operatorga Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish to'g'risida yozma ariza taqdim etish.
- 4.1.8. Qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida o'zining vakiliga (ishonchli shaxsga) uning nomidan qonuniy va haqiqiy harakatlarni amalga oshirish huquqini berish.
- 4.1.9. Qo'shimcha haq evaziga amaldagi tariflarga muvofiq, agar Operatorida buning uchun texnik imkoniyatlar mavjud bo'lsa, abonent raqamini o'zgartirish.
- 4.1.10. Amaldagi tarif rejasini istalgan boshqa tarif rejasiga bepul almashtirish (muayyan guruhlar yoki aniq cheklangan hududlar uchun ishlab chiqilgan alohida tarif rejalariga o'tish bundan mustasno).
- 4.1.11. Amaldagi tariflarga muvofiq Shartnomada ko'zda tutilgan xizmatlardan, shuningdek Operator tomonidan taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlardan foydalanish;
- 4.1.12. Operator tomonidan Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, xizmatlardan voz kechish va Operator bilan shartnomani bekor qilish;
- 4.1.13. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki lozim daragada ko'rsatilmaganligi natijasida Operator tomonidan etkazilgan zararni qoplashni belgilangan tartibda talab qilish;
- 4.1.14. Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha arizalar, takliflar va e'tirozlar bilan Operatorga murojaat qilish;
- 4.1.15. Shaxsiy kabinet/ mobil ilova orqali statistik ma'lumotlarni kuzatish, shuningdek, o'z hisob ma'lumotlarini operativ nazorat qilish va/yoki masofadan boshqarishni onlayn tarzda amalga oshirish hamda taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi va to'plamini o'zgartirish. Shaxsiy kabinet/mobil ilova orqali kiritilgan har qanday o'zgarishlar Abonent tomonidan yozma ravishda amalga oshirilgan, ya'ni Abonent Operatorga yozma ariza bilan shaxsan murojaat qilgan harakatlarga teng bo'ladi.
- 4.1.16. Abonent qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Abonent majburiyatlari:

- 4.2.1. Ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish.
- 4.2.2. Xizmatlar uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda amalga oshirish.
- 4.2.3. Operatorga SIM-karta yo'qolganligi haqida Operator ofislaridan biriga yozma ravishda ariza taqdim etish orqali darhol xabar berish. Abonent ushbu badda belgilangan shartga rioya qilmagan taqdirda, SIM-kartadan foydalangan holda Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar olinganligi uchun to'lovni Operatorga Abonentdan yozma yoki Operator tomonidan o'rnatilgan boshqa usulda, yo'qolganligi va xizmatlardan foydalanishni to'xtatib turish to'g'risidagi ariza murojaati berilgunga qadar to'lashi shart.
- 4.2.4. Shartnomani bekor qilganda Operator bilan yakuniy hisob-kitobni amalga oshirish;
- 4.2.5. Hisob-kitob davri tugashidan oldin Abonent Operatorni Shartnomani bekor qilish yoki Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish haqida yozma ravishda xabardor qilishi shart. Aks holda, Abonent hisob-kitob davri uchun hisoblangan barcha to'lovlarni to'lashi shart.
- 4.2.6. Operatorga taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlar, shu jumladan aloqa ma'lumotlari to'g'ri va amalda bo'lishini ta'minlash va Operatorga har qanday o'zgarishlar to'g'risida zudlik bilan xabar berish;
- 4.2.7. Operator xizmatlaridan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, hisob ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik va bunday harakatlar amalga oshirilganda darhol Operatorni bu haqda xabardor qilish.
- 4.2.8. Xizmat uchun haq to'lanmaganligi yoki Shartnoma shartlari buzilganligi tufayli raqam bloklangan bo'lsa qayta ulanishdan oldin Operator bilan barcha masalalarni hal qilish.
- 4.2.9. SIM-kartani uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik;
- 4.2.10. telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatining pasayishiga yoki telekommunikatsiya tarmoqlarini shikastlanishiga olib keladigan harakatlarni bajarmaslik;
- 4.2.11. Abonent uskunasi, tarmog' va dasturiy ta'minotdagi har qanday nosozliklar yoki o'zgarishlar haqida Operatorni xabardor qilish;
- 4.2.12. Abonent uskunasini texnik ekspluatatsiya qoidalariga rioya qilish;
- 4.2.13. Faqat Operator tarmog'ida identifikatsiya qilingan va O'zbekiston Respublikasi standartlariga mos keladigan Abonent uskunasidan foydalanish.
- 4.2.14. Agar Operator tarmog'ida biron bir nosozlik, texnik nosozliklar yoki boshqa muammolarni aniqlasa, tarmoq ishining yomonlashishiga olib keladigan mustaqil choralar ko'rmaslik, balki Operatorni darhol xabardor qilish.
- 4.2.15. Operator tarmog'ida sun'iy yuk yaratmaslik, Operatorning rozilgisiz xabarlar, qo'ng'iroqlar yoki boshqa aloqa turlarini ommaviy yuborish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan (botlar, skriptlar) foydalanmaslik.
- 4.2.16. Abonentning murojaatiga binoan xizmatlar ko'rsatish vaqtinchalik to'xtatilgan taqdirda, Operator tomonidan belgilangan shart va ayrim cheklovlarni, shuningdek xizmatlarni avtomatik ravishda yangilash muddatlarini hisobga olish.
- 4.2.17. Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yuzasidan shikoyatlar bo'lgan taqdirda, davlat organlariga rasmiy shikoyatlar yuborishdan oldin talabnomani belgilangan tartibda Operatorga yuborish.
- 4.2.18. Davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni uzatish uchun telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

- 4.2.19.** O'zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini va hududiy yaxlitligini zo'ravonlik yo'li bilan o'zgartirishga chaqirmaslik, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini, milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo'zg'atishni targ'ib qilmaslik, pornografiyani targ'ib qilmaslik, reklama axboroti va telekommunikatsiya tarmog'i orqali qonun bilan tarqatilishi taqiqlangan boshqa axborotlarni tarqatmaslik;
- 4.2.20.** Fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishechanlik obro'siga putur etkazadigan, shaxsiy hayotiga xalaqit beradigan ma'lumotlarni telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda tarqatmaslik;
- 4.2.21.** Me'yoriy hujjatlar asosida telekommunikatsiya tarmog'i orqali tarqatilishi taqiqlangan ma'lumotlardan tijorat yoki notijorat maqsadlarda foydalanmaslik;
- 4.2.22.** Kompyuter viruslari bo'lgan yoki tarmoqqa zarar etkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yoki dasturlarni joylashtirmaslik yoki uzatmaslik;
- 4.2.23.** Kompyuter axborotidan, ya'ni axborot-hisoblash tizimlari, tarmoqlar va ularning tarkibiy qismlaridagi ma'lumotlardan noqonuniy (ruxsatsiz) foydalanmaslik.
- 4.2.24.** Telekommunikatsiya tarmog'ida taqdim etilayotgan axborotga va intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan mualliflik huquqini buzmaslik;
- 4.2.25.** Operator xizmatlaridan fribgarlik, spam tarqatish, fishing hujumlarini amalga oshirish yoki boshqa noqonuniy (frod deb baholanadigan) harakatlarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik.
- 4.2.26.** Operatorga normativ hujjatlarga muvofiq, shuningdek, uning aybi bilan etkazilgan zararni qoplash.
- 4.2.27.** Abonent qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5. O'ZARO HISOB-KITOB-LAR TARTIBI

- 5.1.** Operator xizmat ko'rsatishni to'lov sanasida amalda bo'lgan Tarif rejasida belgilangan miqdor summasi Abonent tomonidan oldindan to'lov ko'rinishida to'lagandan so'ng amalga oshiriladi.
- 5.2.** Operator xizmatlari uchun Tariflar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida belgilanadi. Xizmatlar uchun barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. Operator xizmatlari narxiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'shib hisoblangan.
- 5.3.** Operatorning taqdim etiladigan xizmatlari uchun belgilangan Tariflari Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblar qilish uchun majburiy hisoblanadi.
- 5.4.** Operator xizmati yoki xizmatlari uchun to'lov Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ruxsat etilgan har qanday usulda (bank kassasi orqali naqd pul to'lash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari, bankdan tashqari elektron to'lov tizimlari yoki mobil ilovalar orqali, oldindan to'lov summasini Operatorning bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan) amalga oshiriladi.
- 5.5.** To'lanishi lozim bo'lgan to'lov:
- abonent to'lovi;
 - bir martalik to'lov (tanlangan xizmat turiga ko'ra);
 - tanlangan amaldagi tarifga muvofiq ortiqcha trafik limiti;
 - xizmatlar ko'rsatilganda Abonent tomonidan to'lanadigan qo'shimcha xizmatlar.
- 5.6.** Abonent to'lovi Abonent tomonidan o'zi tanlagan Tarif rejasiga yoki Operatorga tegishli Abonent uskunasi bilan foydalanishda unga mo'ljallangan Tarif rejasiga muvofiq to'lanadi.
- 5.7.** Hisob-kitob davri uchun oylik abonent to'lovi Abonent tomonidan hisob-kitob davri boshlanishidan oldin 100% oldindan to'lov, ya'ni avans to'lovi shaklida to'lanishi kerak va Abonent hisob-kitob davrida ko'rsatilgan xizmatlardan foydalanish yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar, Operator tomonidan hisobdan chiqariladi. Abonent to'lovining hisob-kitob davri 30 kalendar kunni tashkil etadi (agar Tarif rejasiga muvofiq boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) va u har bir Abonent uchun kalendar oyining birinchi sanasiga bog'lanmagan holda Abonentning shaxsiy hisob raqamidan echilgan/hisobdan chiqarilgan kun va vaqtdan boshlab alohida hisoblanadi. Abonent to'lovining hisob-kitob davri Abonentning shaxsiy hisob raqamidan pul mablag'i echilgan/hisobdan chiqarilgan paytdan boshlanadi.
- 5.8.** Abonent tanlagan Tarif rejasiga muvofiq avans to'lovini amalga oshirmagan yoki Abonentning shaxsiy hisob raqamida mablag' bo'lmagan yoki uzib qo'yish chegarasiga yetgan taqdirda Operator Abonentni qo'shimcha ogohlantirmasdan abonent raqamini tarmoqdan uzib qo'yish va unga xizmat ko'rsatishni to'xtatish huquqiga ega. Agar Abonentda bir nechta abonent raqamlari bo'lsa, bu qoida har bir abonent raqamiga alohida qo'llaniladi. Bunda Abonent raqami tarmoqdan uzilgan kundan e'tiboran 365 kalendar kuni o'tgach, abonent raqamining Abonent nomida saqlab qolinishi kafolatlanmaydi. Abonent raqamini faollashtirish ("Faol" holatiga o'tkazish) uchun Abonent barcha mavjud qarzdorlikni to'lashi va amaldagi tariflar bo'yicha faollashtirish chegarasidan kam bo'lmagan miqdorda avans to'lovini amalga oshirishi kerak.
- 5.9.** Operator kredit asosida ko'rsatilgan mobil aloqa xizmatlari uchun to'lov muddatini mustaqil ravishda belgilaydi va bu haqda o'zining rasmiy saytida ma'lumotlarni joylashtirish orqali Abonentlar e'tiboriga yetkazadi.
- 5.10.** Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq ushbu Shartnoma bo'yicha Abonentning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash va Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatlarini Abonent tomonidan bajarilishini ta'minlash maqsadida Operator oldida to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olgan uchinchi shaxslar bilan kafillik shartnomalari tuzilishi mumkin. Bunday kafillik shartnomalari ushbu Shartnomaning ajralmas qismi va tomonlar uchun majburiy hisoblanadi.
- 5.11.** Agar Abonentning Operator oldida u tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanmagan qarzi mavjud bo'lsa, Abonent tomonidan to'langan to'lov birinchi navbatda uni to'lash uchun yo'naltiriladi. Qarz qoplangandan keyin qolgan summa hisobdan chiqariladi va Abonent tanlagan Tarif rejalari bo'yicha xizmatlar haqini to'lashga yo'naltiriladi.

5.12. Hisobga olish va tariflash tizimida texnik nosozliklar yuzaga kelganda, tizimdagi rejali/rejadan tashqari ishlar amalga oshirilganda, Operator muammolarni bartaraf etgandan so'ng xizmatlarni tariflash huquqini o'zida saqlab qoladi.

6. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCHLAR/FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Operator fors-major holatlari, ya'ni fors-major holatlari deb tan olingan holatlar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgar emas. Umumiy qabul qilingan holatlarga qo'shimcha ravishda, tomonlar quyidagi voqealarni fors-major deb hisoblashga kelishib oldilar: hukumat yoki davlat organlari va tashkilotlarining Operatorni xizmat ko'rsatish, montaj qilish, sinovdan o'tkazish, texnik xizmat ko'rsatish jarayonini amalga oshirish imkoniyatini cheklaydigan yoki ulardan mahrum qiladigan, shuningdek xizmatlar uchun to'lov tartibi va shakliga ta'sir ko'rsatadigan har qanday harakatlari, zilzilalar, toshqinlar, yong'in, qurg'oqchilik, barcha turdagi harbiy harakatlar hamda tomonlar irodasiga bog'liq bo'lmagan fors-major holatlarining boshqa mumkin bo'lgan holatlari.

6.2. Agar fors-major holatlari ikki oydan ortiq davom etsa, tomonlarning har biri shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqlidir va tomonlardan hech biri boshqa tomondan mumkin bo'lgan zararni qoplashni talab qila olmaydi.

6.3. Fors-major holatlari tufayli ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmagan tomon bu haqda boshqa tomonni darhol xabardor qilishi shart. Xabarnoma shartnomada ko'rsatilgan yuridik manzilga yuboriladi.

7. SHARTNOMANING MAXSUS SHARTLARI

7.1. Operatorning abonent bazasini kengaytirishga qaratilgan har qanday marketing tadbirlarini amalga oshirish davrida Operator tarmog'iga ulanish shartlari bunday tadbirlarning shartlariga qarab o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

7.2. Ulanishda chegirmalar, sovrinlar va/yoki imtiyozlar olgan Abonent ushbu Shartnomada ko'rsatilmagan, lekin u bilan alohida tuzilgan shartnomada belgilangan barcha qo'shimcha shartlarga rioya qilishga majburdir.

7.3. Shartnomaning 7.2-bandi buzilgan taqdirda, Abonent chegirmalar, sovrinlar va/yoki imtiyozlar olish huquqidan mahrum bo'ladi va bunda Operatorning unga berilgan imtiyoz xarajatlarini Abonent tomonidan qoplanishi shart.

7.4. Operator Abonent bilan Shartnoma tuzishni quyidagi hollarda rad etishga haqli:

- 1) Operator tarmog'idan foydalana olishni taqdim etishda texnik jihatdan imkoniyati bo'lmasa;
- 2) Abonent so'ragan xizmatlarni ko'rsatishning texnik jihatdan imkoniyati bo'lmasa;
- 3) Agar Abonentda Operator xizmatlarini qabul qilish uchun tegishli Abonent uskunasi bo'lmasa;
- 4) Agar Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar uchun Abonentning qarzi to'g'risida Operatorida ma'lumotlar mavjud bo'lsa;
- 5) Operator Abonent uskunasi yo'qolganligi to'g'risidagi yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga va ushbu Oferta shartlariga mos kelmaydigan ma'lumotlarga ega bo'lsa.

7.5. Abonent Operatorga murojaat qilgan paytdan boshlab Shartnoma bekor bo'lgunga qadar o'zining shaxsiga doir ma'lumotlari Operator tomonidan qayta ishlanishidan xabardor va unga rozilik bergan.

7.6. Ushbu Oferta nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shu jumladan Abonentning aybi bilan Abonent raqami bloklangan taqdirda, Operator ushbu bloklash davrida aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatib turishga haqli. Ko'rsatilgan davrda Abonent raqamidan foydalangan holda taqdim etiladigan kontent-provayderlarning xizmatlaridan (servislaridan) foydalanish imkoniyati ham cheklanadi. Bunday xizmatlardan foydalanish imkoniyatini to'xtatib turish ularning oldindan to'langani yoki to'lanmaganidan qat'i nazar amalga oshiriladi. Operator bloklash davrida ko'rsatilgan xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi uchun, shu jumladan agar bunday bloklash Abonentning aybi bilan yuz bergan bo'lsa, kontent-provayderlar tomonidan xizmatlar ko'rsatishning mazmuni, sifati va shartlari uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

7.7. Kontent-provayderlar tomonidan xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq o'zaro munosabatlar tegishli kontent-provayderlarning shartlari bilan tartibga solinadi.

7.8. Operator quyidagi hollarda abonent raqamini bloklashni amalga oshirishga haqli:

7.8.1. Abonent tomonidan ushbu Oferta shartlari yoki amaldagi qonunchilik talablari buzilganda.

7.8.2. Tarif rejasi qiymati va/yoki Abonent tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa xizmatlar uchun to'lov amalga oshirilmaganda.

7.8.3. Firibgarlik belgilari, raqamdan ruxsatsiz (sanksiyasiz) foydalanish yoki xizmatlardan g'ayriqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari aniqlanganda.

7.8.4. Vakolatli davlat organlaridan qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli talab kelib tushganda.

7.8.5. Shartnoma tuzish paytida Abonent tomonidan noto'g'ri yoki noaniq ma'lumotlar taqdim etilganda yoki ular keyinchalik yangilanganda.

7.8.6. Texnik ishlar o'tkazilganda, avariya holatlari yuz berganda yoki tarmoq faoliyatining xavfsizligi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa holatlar yuzaga kelganda.

7.8.7. Ushbu Oferta va/yoki amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

8. MAXFIYLIK

8.1. Operator xodimlariga o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lgan Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq himoya qilinishi lozim. Abonent haqidagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi: Abonentning familiyasi, ismi va otasining ismi; Abonent manzili yoki abonent uskunasi o'rnatilgan manzil, taxallus, abonent raqamlari, tarmoq orqali chiquvchi va/yoki kiruvchi ma'lumotlar,

shuningdek, Abonent va/yoki uning abonent uskunasi aniq identifikatsiya qilish imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar. Ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlar Abonentga yoki uning qonuniy vakillariga shaxsan taqdim etilishi mumkin. Tomonlar boshqa Tomonning yozma roziligidan ushbu Shartnoma to'g'risidagi har qanday ma'lumotni uchinchi shaxslarga bermaslik majburiyatini oladi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

8.2. Abonent to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa vakolatli organlarga taqdim etilishi mumkin.

9. ABONENTNING OPERATORGA BO'LGAN TALABLARINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Xizmatlarni taqdim etish majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Abonent Operatorga talabnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

9.2. Talabnoma yozma ravishda taqdim etiladi va Operator tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

9.3. Ko'rsatilmagan, o'z vaqtida ko'rsatilmagan yoki sifatsiz xizmatlar bo'yicha talablar bunday xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab 3 (uch) oy ichida qabul qilinadi.

9.4. Berilgan hisobdan rozi bo'lmagan taqdirda, Abonent uni olgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida yoki to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 20 (yigirma) kalendar kun ichida Operatorga yozma ravishda asoslantirilgan talabnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

9.5. Talabnomaga yozma javoblar ushbu Shartnomaning 9.2-bandiga muvofiq Operator tomonidan talabnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun, yoki materiallarni qo'shimcha ravishda o'rganish zaruriyati tug'ilganda bir oygacha bo'lgan muddatdaberilishi kerak.

10. TOMONLARNING MAS'ULIYATI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

10.2. Shartnoma bo'yicha to'lov shartlari buzilgan taqdirda, Abonent Operatorga qarz yuzaga kelgan kundan boshlab kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 0,5 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya (jarima) to'laydi.

10.3. Ushbu Shartnomaning 2.9-bandi shartlari buzilgan taqdirda barcha javobgarlik Abonent zimmasida bo'ladi.

10.4. Operator Abonentning bilvosita yo'qotishlari va yo'qotilgan foydalari uchun javobgar bo'lmaydi.

10.5. Abonentning buyurtmasi/roziligi asosida uchinchi shaxslar tomonidan Operator tarmog'i orqali yuborilgan kontentning taqdim etilmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganligi, mazmuni va sifati uchun javobgar bo'lmaydi.

10.6. Operator xizmatlarni taqdim eta olmasligi uchun, agar bu Abonent tomonidan abonent uskunasi noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, javobgar bo'lmaydi. Abonent tomonidan abonent uskunasi va aksessuarlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish bo'yicha barcha moddiy xarajatlar Abonent tomonidan qoplanadi.

10.7. Operator Abonentning abonent uskunasi va/yoki mobil ilovasi/shaxsiy kabineti orqali bergan buyurtmalari yoki Abonent tomonidan abonent uskunasi (shu jumladan zavod sozlamalari) o'rnatilgan sozlamalarning to'g'riligi uchun javobgar bo'lmaydi. Bunda, Shartnoma bo'yicha, Abonentga uning buyurtmasi bilan taqdim etilgan xizmatlar ko'rsatishning barcha holatlari, shuningdek, u ko'rsatgan sozlamalarga (zavod sozlamalari) muvofiq abonent uskunasi ish rejimida javobgarlik faqat Abonent zimmasida bo'ladi.

10.8. Abonent o'z nomiga rasmiylashtirilgan barcha abonent raqamlari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, shu jumladan, noqonuniy maqsadlarda foydalanilgan taqdirda ham javobgar bo'ladi.

Abonent abonent raqami, Abonent uskunasi (mobil uskunasi), shuningdek Operatorning mobil ilovasi va/yoki shaxsiy kabinetidan foydalangan holda sodir etilgan hamda Operator va Abonent o'rtasidagi shartnoma munosabatlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishiga olib keladigan barcha harakatlar uchun to'liq javobgarlikni zimmasiga oladi. Ko'rsatilgan barcha harakatlar shaxsan Abonent tomonidan yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan sodir etilgan deb hisoblanadi. Operator bunday harakatlarning oqibatlarini uchun, shu jumladan uchinchi shaxslarning Abonentning mobil uskunasi, abonent raqami yoki autentifikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holatlari uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

10.9. Internet xizmatlari, ma'lumotlarni uzatish va Wi-Fi xizmatlarini taqdim etishda operator o'z nazorati ostida (to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvi va nazorati ostida) bo'lmagan resurslar, serverlar va ma'lumotlarni uzatish tarmog'i segmentlarining mazmuni, mavjudligi va ishlashi uchun javobgar bo'lmaydi.

10.10. Operatorning shartnoma majburiyatlarini buzganligi, shu jumladan har qanday xato, kamchilik nuqson, ishda buzilish yoki uskunaning ishdan chiqishi bilan bog'liq bo'lgan javobgarligi, agar mavjud bo'lsa, Operator xizmatlari uchun o'rtacha oylik to'lov miqdordan oshmasligi kerak. Operatorning etkazilgan ma'naviy zarar bo'yicha javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

10.11. Xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar tarafidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, talabnoma berish tartibiga rioya qilgan holda hal qilinadi.

10.12. Abonent o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar yuzasidan tomonlar kelishuvga erisha olmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda umumiy yurisdiksiya sudida ko'rib chiqiladi.

10.13. Tarmoqqa ruxsatsiz kirish orqali uchinchi shaxslar tomonidan xizmatlardan foydalanish natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Operator amalga oshirilgan harakatlarga bo'lgan huquqini aniqlash uchun belgilangan tartibda ichki texnik tekshiruv o'tkazishga haqli.

10.14. Operatorda Abonentning Operator xizmatlaridan vijdonan foydalanishi yuzasidan shubha tug'ilgan taqdirda, Operator har qanday maqbul vositalar bilan Abonentga Operator ofisiga vaziyatni aniqlashtirish uchun kelishi va xizmatlarning to'xtatilishi mumkiligi to'g'risida xabar yuboradi. Agar Operatorning xabarnomasi Abonent tomonidan xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 3 kalendar kun ichida bajarilmasa, Operator tomonidan xabarnomada talab qilingan shartlarni bajarmaguncha Operator Abonentga xizmatlarni ko'rsatishni to'xtatib qo'yishga haqli.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH (TO'XTATISH) SHARTLARI

11.1. Ushbu Shartnoma Operator Abonentdan aksept olgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qadar yoki uni bekor qilgun (tugatish)gacha amal qiladi.

11.2. Shartnoma Abonentning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin.

11.3. Abonent birinchi navbatda Shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun barcha to'lovlarni amalga oshirgan holda, Operatorga yozma ravishda murojaat qilish orqali xizmatlardan voz kechishi va ushbu Shartnomani bekor qilishi mumkin. Bunday holda, Abonent tomonidan ilgari amalga oshirilgan to'lovlar Operator tomonidan Abonentning to'lanmagan to'lovlarni to'lash uchun ishlatiladi. Abonentning shaxsiy hisob raqamidagi qolgan mablag'lar (agar mavjud bo'lsa) Shartnomaning 12.1-bandida belgilangan tartibda Abonentga qaytarilishi kerak.

Abonent tomonidan shartnomani bekor qilish tashabbusi Operatorning mobil ilovasi va/yoki Operatorning rasmiy saytidagi shaxsiy kabinet orqali amalga oshirilgan taqdirda, ushbu axborot tizimlarida tegishli harakatlarning bajarilishi Abonentning shartnomani bekor qilishga bo'lgan irodasining tegishli va yetarli darajada ifodalanishi deb e'tirof etiladi. Abonentning shartnomani bekor qilishga bo'lgan roziligi Abonent tomonidan ko'rsatib o'tilgan harakatlar masofaviy tarzda bajarilgan paytdan boshlab Operator tomonidan olingan deb hisoblanadi hamda yozma yoki boshqa shaklda qo'shimcha tasdiqlashni talab etmaydi.

11.4. Agar Abonent ushbu Shartnoma shartlarini buzgan bo'lsa, Operator ushbu Shartnomani bir tomonlama bunday qoidabuzarlik haqida Operatorga ma'lum bo'lgan paytdan boshlab bekor qilishga haqli.

11.5. Agar abonent uskunasi tarmoqdan uzilgan kundan boshlab ketma-ket 365 kalendar kunidan keyin abonent raqami Abonent tomonidan faollashtirilmasa ("Faol" holatiga o'tkazilmasa) Shartnoma oldindan ogohlantirilmasdan bekor qilinadi va abonent raqami Operatorga uning qiymati Abonentga qaytarilmagan (qoplanmagan) holda qaytariladi.

11.6. Ushbu Shartnoma Abonent vafot etgan va Operatorda tegishli tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda bekor qilinadi.

11.7. Agar davlat organining akti qabul qilinishi natijasida taraflar tomonidan majburiyatni bajarish imkonsiz bo'lib qolsa, ushbu Shartnoma bekor qilinadi.

11.8. Shartnomani bekor qilish Shartnomada yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham amalga oshirilishi mumkin.

12. SHARTNOMANNING BOSHQA SHARTLARI

12.1. Shartnoma bekor qilinganda, Abonentning shaxsiy hisob raqamida qolgan mablag'lar Abonentdan kelib tushgan yozma arizaga asosan tomonlar tarafidan tegishli solishtirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 15 (o'n besh) bank kuni ichida Abonentga qaytariladi. To'lovlarni qaytarish Operator tomonidan milliy valyutada Operator tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda hisoblangan abonent to'lovi va abonent uskunasi tarmoqqa ulash uchun to'lov Abonentga qaytarilmaydi. Shartnoma bekor qilingan taqdirda Operator abonent raqamlarining saqlanishini kafolatlamaydi. Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

12.2. Abonent unga ko'rsatilayotgan xizmatlar radioto'lqinlar tarqalishining tabiiy sharoitlari tufayli binolar yaqinida va ichkarisida, tunnellarda, yerto'lalarda, metroda, shuningdek, relyef, noqulay meteorologik sharoitlar va boshqa sabablarga ko'ra yomonlashishi, uzilishi yoki shovqinlar bilan birga bo'lishi mumkinligidan xabardor va unga rozilik bildiradi. Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar konstruktiv xususiyatlariga ko'ra, Operator vakolatiga kirmaydigan boshqa tarmoq operatorlarining aloqa sifatiga bog'liq. Operator o'zining texnik imkoniyatlari va xizmat ko'rsatish hududini hisobga olgan holda aloqa xizmatlarini taqdim etadi.

12.3. Operator tarmog'iga bitta Abonentning bir nechta abonent raqamlari va Abonent uskunasi ulanishi mumkin. Bunda tomonlarning Shartnomada belgilangan majburiyatlari va huquqlari har bir abonent raqami uchun amal qiladi.

12.4. Abonent o'zi tanlagan Tarif rejasi va/yoki qo'shimcha xizmatlar to'plamini o'zgartirishi Abonentning yoki uning vakilining yozma arizasiga ko'ra yoki Abonent tomonidan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq mobil ilova/shaxsiy kabinetida tegishli o'zgartirishlar kiritilishi orqali amalga oshiriladi. Bunda abonent raqamini va/yoki abonent uskunasi almashtirish faqat Abonent yoki uning vakilining yozma ariza va shaxsiy ishtirokida amalga oshiriladi. Arizalar Operator ofislari va dilerlik punktlarida qabul qilinadi.

12.5. Operator O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining, shuningdek, ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni amalga oshirishga haqli, bu esa xizmatlar sifatining vaqtincha yomonlashishiga va xizmatlar ko'rsatishning uzilishiga olib kelishi mumkin. Abonent, agar xizmatlar sifatining yomonlashuvi va to'xtab qolishi 24 soatdan oshmasa, Operator uning oldida javobgar emasligiga rozilik bildiradi.

12.6. Ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq yoki undan kelib chiqadigan barcha xabarlar, bildirishnomalar va murojaatlar tomonlar tarafidan Shartnomada (ro'yxatga olish shakli) ko'rsatilgan yozishmalarni yetkazib berish manzillari bo'yicha bir-birlariga yuborilishi kerak.

12.7. Ushbu Ommaviy oferta o'zbek tilida tuzilgan va rus tiliga tarjima qilingan. Ushbu Ommaviy ofertaning har qanday qoidalarini talqin qilish bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tilidagi variant ustunlikka ega bo'ladi.